

**BO`LAJAK TEENOLOGIYA TA`LIMI O`QITUVCHILARIDA KASBIY  
KOMPETENTLIKNI OSHIRISH VA AMALIY MASHG`ULOT DARSLARINI  
INNOVATSION TEENOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**Gadaymuratov Shuxrat Mamayusupovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Termiz davlat pedagogika instituti

*Texnologik ta`lim kafedrasi katta o`qituvchisi*

**MAQOLA  
MA'LUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 27.12.2024

Revised: 28.12.2024

Accepted: 29.12.2024

*Ushbu ilmiy uslubiy ishda bo`lajak texnologiya ta`limi o`qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetentligini oshirish hamda amaliy mashg`ulot darслarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy tahlili qarab chiqilgan.*

**KALIT SO`ZLAR:**

*Ta`lim, innovatsiya,  
amaliy mashg`ulot,  
o`quvchi, pedagog, dars,  
kasbiy kompetentlik,  
kasbiy layoqat,  
texnologiya, “Texnologik  
ta`lim”.*

**KIRISH.** Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida barcha sohalarni tubdan isloh qilish siyosati bormoqda. Bilamizki, mustaqillikka erishgan paytlarimiz sohalar bo`yicha chiqqan qaror va farmonlar bugungi zamon talablariga javob bera olmayapti. Hozirda dunyo shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etar ekan, biz ham zamon bilan hamnafas bo`lmog`imiz zarur. Shu jumladan ta`lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadida prezidentimizning odilona siyosatlari va tashabbuslari bilan bo`lmoqda desam adashmagan bo`laman. Bunga birgina 2020 yil 23 sentabrda O`RQ 637-sonli “Ta`lim to`g`risida”gi qarorini dunyoning rivojlangan davlatlarining “Ta`lim to`g`risida”gi qaror va farmonlarini o`rganib chiqib bizning millatimizga, minteletimizga mos qilib andoza olish va bu bilan rivojlangan davlatlarning taraqqiyot yo`lini mamlakatimizdagi islohatlarda o`z aksini toptirishdir. Yosh avlodga ta`lim - tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustivor vazifalaridan biri xisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo`lishi, zamonaviy fan, madaniyat, iqtisod, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan belgilanadi.

Davlatning iqtisodiy, texnik rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bular mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, uning geografik joylashuvi, ta'lim tizimi, tarixi va boshqa ko'p omillardir. Lekin mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalana oladigan, davlatning tarixiy rivojlanishini belgilab beradigan (tarixni o'z qo'li bilan yaratadigan), davlat iqtisodiyotini boshqaradigan, yangidan-yangi texnikani yarata oladigan, mavjud ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan omil bu albatta, inson omilidir. Shunday ekan, aynan inson omili, boshqacha qilib aytganda, inson resursi mamlakat rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydi. Demak, O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishida ham inson omilining o'rni beqiyosdir. Kelajakda buyuk davlat barpo etishga qodir insonlarni tayyorlab berish birinchi o'rinda ta'lim muassalarining qo'lida.

Mamlakatning taraqqiyoti va o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiylari va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta'lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Zero, ta'lim o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi.

- bo'lajak o'qituvchini pedagogik kasbga ijodiy munosabatga tayyorlash nazariy asoslandi va uning omillari ko'rsatildi;

- pedagogik kasbga ijodiy munosabat asoslari ilmiy tahlil etildi;

- pedagogik kasbga ijodiy munosabatning o'ziga xos xususiyatlari va ularni faollashtirish omillari, talabalarning pedagogik faoliyat motivlari va ularni rivojlantirish yo'llari belgilab berildi;

- bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatga tayyorlash tizimi ishlab chiqildi;

Pedagogika nazariyasi kursi bo'lajak o'qituvchini pedagogik kasbga ijodiy munosabatga yo'naltirilgan nazariy qarashlar va yondashuvar bilan boyitildi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchini kasbiy yo'naltirish motivlari, ularni rivojlantirish yo'llari belgilab berildi.

Tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchini pedagogik kasbga ijodiy munosabatga tayyorlashga oid ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va tizim oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kasb (lotincha: professio – rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, vrachlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqa). Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Dunyoda har bir kasbning o'ziga yarasha mashaqqati, mehnati bor. Har

bir inson o‘z qiziqishiga qarab o‘zi uchun kasb tanlaydi. Siz ham o‘zingizga mos bo‘lgan kasb tanlab o‘z ustingizda ishlab, yangiliklar qilib O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tardigan darjada kasb egallang. Bu mening sizga bo‘lgan yaxshi maslahatim edi. Hayr salomat bo‘ling.


Mutaxassislik – kasbiy ta’lim, tayyorgarlik yo‘li bilan o‘zlashtirilgan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmuasi bo‘lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma’lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi

Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Kreativlik (creativity –inglizcha ijodiy, “lotincha creation – “yaratish”) deb pedagogik adabiyotlarga kiritmoqdalar

“Ijod –insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati.Unda inson tafakkuri, xotirasi tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi tajribasi, iste’dodi namoyon bo’ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy faoliyati modeli



Talabalarni oliy ta'lif muassasasi sharoitiga moslashtirishda va pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirishda quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1) talabalarda moslashuv jarayonining kechishi murakkab dinamikaga ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;

2) talabalar uchun o'qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;

3) oliy ta'lif muassasasida tahsil olish jarayonida talabalarda o'z-o'zini anglash tuyg'usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;

4) talabalarda bazaviy o'quv moslashuvlari va pedagoglik kasbiga ijodiy munosabat shakllanadi;

5) talabalik yillari tashkiliy, metodik va psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kasbiy va shaxsiy moslashuvining eng muhim bosqichidir

O'quvchilarni kasb tanlashga bo'lgan munosabatlari


| № | sinflar | TANLAGAN KASBLAR (% hisobida) |                              |                       |                          |                    |
|---|---------|-------------------------------|------------------------------|-----------------------|--------------------------|--------------------|
|   |         | Miditsina yo'nalishi          | Qishloq xo'jaligi yo'nalishi | Pedagoglik yo'nalishi | Maishiy xizma yo'nalishi | Texnika yo'nalishi |
| 1 | 3-4     | 10                            | 3                            | 55                    | 15                       | 17                 |
| 2 | 5-8     | 19                            | 10                           | 40                    | 13                       | 18                 |
| 3 | 9       | 18                            | 7                            | 31                    | 25                       | 19                 |

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga bergen baholari

| № | sinflar | TANLAGAN KASBLAR (% hisobida) |                              |                       |                          |                    |
|---|---------|-------------------------------|------------------------------|-----------------------|--------------------------|--------------------|
|   |         | Miditsina yo'nalishi          | Qishloq xo'jaligi yo'nalishi | Pedagoglik yo'nalishi | Maishiy xizma yo'nalishi | Texnika yo'nalishi |
| 1 | 3-4     | 10                            | 3                            | 55                    | 15                       | 17                 |
| 2 | 5-8     | 19                            | 10                           | 40                    | 13                       | 18                 |
| 3 | 9       | 18                            | 7                            | 31                    | 25                       | 19                 |

1.3.3-jadval. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlaridagi ijodiy munosabat elementlari mavjudligiga bo'lgan munosabatlari

1.3.1-rasm O'qituvchilarning fikricha pedagogik faoliyatdagagi muvaffaqiyat omillari.



OTMlaridagi o'quv-tarbiya jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirish jarayonida katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ammo mazkur jarayonga bir tomonlama yondashish mutaxassislarning sifat darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligi ham amaliyotda tasdiqlandi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya jarayonini ijtimoiy talablar, demokratik tamoyillar, shuningdek ishlab chiqarishning mutaxassis shaxsiga qo'yayotgan malakaviy talablaridan kelib chiqib modernizatsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirish, ularning mustaqil izlanishga yo'naltirilganligi va kasbiy motivatsiyasi yetakchi ijtimoiy-psixologik

omillardan biri bo'lib, mazkur jihatlar ta'lim oluvchilarning tanlangan faoliyat sohasiga ijodiy munosabat jarayonini jadallashtiradi.

1. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirish nazariyasi tahlili natijasida uning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etildi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirish mazmunini pedagog mutaxassis shaxsiga quyladigan zamonaviy kasbiy talab va takliflar darajasida takomillashtirish zarurati asoslab berildi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirishda o'quv jarayonini tashkil etishga innovatsion yondashuvni qaror toptirish zarurati va bunda yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi mutaxassislar pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatishini tajriba natijalari tasdiqladi.

4. Yangicha mazmundagi o'quv metodik majmualarni yaratish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlarini o'quv jarayoniga tadbiq etish va tizimli monitoring jarayonini yo'lga qo'yish talabalarning bilish faolligini ta'minlashda, ularning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi

Uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishimizga asos bo'ldi: - bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirishning mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish;

- bitiruvchi kurslarda "Innovatsion o'qitish texnologiyalari", "Tarbiya texnologiyalari" kurslarining o'qitilishini yo'lga qo'yish;

- bo'lajak o'qituvchilardagi pedagoglik kasbiga ijodiy munosabatni shakllantirish jarayonida pedagogik amaliyot ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratish;

- o'quv-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to`g`risida"gi 2020 yil 23 sentabr O`RQ 637 – sonli Qarori / [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).

2. 1.Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shaklantirish. - T.: Fan nashriyoti, 2004. -130 b.

3. Muslimov N.A., Zuparova D.D., Karimova N.N. Становление дизайн образования в Узбекистане // Kasb-hunar ta' imi. – Toshkent. 2017. - №3. – B. 65-69.

3. Muslimov N.A. Bo'lalak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ telnologiyalari: Respublikasi amaliy konferensiya materialari.- Toshkent: TDPU, 2010. - B. 114-118.

4. Karimova N.N. Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati Kasbhunar ta'limi. – Toshkent. 2011.-№ 3.-B. 20-23.
  5. Гадаймуратов, Ш. М. (2022). БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 3(5), 5-7.
  6. Mamayusupovich, G. S., & Fozilbek To'lqin o'g, S. (2024). BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O 'QITUVCHISINING KREATIVLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(3), 224-227.
  7. Eshmuradov, O. E., Gadaymuratov, S. M., & Qodirov, Z. M. (2023). PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI PEDAGOG XODIMLARINING O 'ZINI-O 'ZI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI. Zamnaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 1(5), 47-58.
  8. Gadaymuratov, S. (2023). SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Interpretation and researches, 2(1).
  9. Mamayusupovich, G. S. (2022). Professional Competence Development of Future Technological Education Teachers. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 1(9), 73-75.
  10. Кучаров, С. (2022). Texnologik ta'limda zamnaviy 0 'qitish metodlaridan foydalanish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 280-284.
  11. Кучаров, С. (2023). Основные формы преподавания профильных предметов для технологических образовательных направлений. Общество и инновации, 4(1/S), 171-181.
  12. Kucharov, S. A. (2023). TEXNOLOGIK TA'LIM YO 'NALISHIDA SMART O 'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 59-69.
  13. Дусяров, Х. Ч., & Кўчаров, С. А. (2023). ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМДА УЗВИЙЛИК ФАНИНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ. Zamnaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 1(5), 22-35.
  14. Kungratovich, C. R., & Akmalovich, K. S. (2023). METHODOLOGY OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS IN INFORMATION EDUCATION. Science and Innovation, 2(12), 14-18.
  15. Akmalovich, K. S. (2024). MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGICAL ROLE OF INFORMATION EDUCATION IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Science and Innovation, 3(2), 52-56.
-